

*Xolmirzaev Toir Ro‘zimurodovich*

*Assistent*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*O‘zbekiston*

## **HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

*Annotatsiya:* Maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmat ko‘rsatish sohasining rolini baholashning reyting usuli tadqiq etilgan. Unda xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida tahlil etilgan.

*Kalit so‘zlar:* hudud, hududlar rivojlanishi, xizmat ko‘rsatish sohasi, davlat xususiy sherikchiligi, hududlar toifasi, hududlar tavsifi, baholash, reyting.

*Холмирзаев Тоир Рузимуродович*

*Ассистент*

*Университет экономики и педагогики*

*Узбекистан*

## **СТРЕМИТЕЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕГИОНАХ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

*Аннотация:* В статье исследован рейтинговый метод оценки роли сферы услуг в социально-экономическом развитии регионов. В нем проанализированы основные показатели сферы услуг по регионам.

*Ключевые слова:* регион, развитие регионов, сфера услуг, государственно-частное партнерство, категория регионов, характеристика регионов, оценка, рейтинг.

*Kholmirzaev Toir Ruzimurodovich*

*Assistant*

*University of Economics and Pedagogy*

*Uzbekistan*

## **RAPID DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REGIONS (USING THE EXAMPLE OF THE KASHKADARYA REGION)**

***Abstract:*** The article examines the rating method for assessing the role of the service sector in the socio-economic development of regions. It analyzes the main indicators of the service sector by region.

***Keywords:*** region, regional development, service sector, public-private partnership, category of regions, characteristics of regions, assessment, rating.

**Kirish.** Ilg‘or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Chunki bu soha iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etishi zarur. Shu boisdan xizmatlar sohasi hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning asosiy mezoni hisoblanadi. Bu borada, mamlakatimizda xizmatlar sohasining tezkor o‘sish sur’atlarini ta’minlash, sohada tadbirkorlik faolligini yanada qo’llab-quvvatlash va aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish<sup>1</sup>, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish<sup>2</sup> borasidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmat ko‘rsatish sohasidagi

tendensiylar va bu jarayonlarda xususiy tadbirkorlikning rolini baholashga alohida e'tibor qaratdik. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlikning rolini oshirish masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'r ganilgan.

### Ilmiy muammoning qo'yilishi.

Hududlarni rivojlantirishda xizmatlar sohasining rolini baholashning reyting va toifalash usulini tadqiq etish borasida shu kunga qadar qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, va bular qatorida quyidagilarni ko'r shimiz mumkin: hududiy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligi va boshqalar Keyingi yillarda yangicha yondashuvdagagi tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hududiy rivojlanish, hududlar rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini "mahallabay" yondashuvida baholash8 kabilarni ta'kidlash joiz.

Biroq, ushbu sohada tadbirkorlik rolini, mavjud iqtisodiy ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib ilmiy-amaliy jihatdan o'r ganish ham amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot xizmat ko'rsatish sohasini tadqiq etishning alohida uslubi bo'lib, ushbu sohada aholining tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy ma metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muam molari va omillariga ko'ra, hududlarni tadqiq etishning yo'nalishlari va metodologik konsepsiyalari farq qiladi. Bunday baholash natijalari ham hududlar rivojlanishida notejis tendensiyalarning mavjudligini tasdiqlaydi. Buning sabablari hududlarning qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslar va iqlim sharoitlari, infratuzilma ob'ektlarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillar bilan bir qatorda hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi va bunda "mahalla" va "sektor"larning roli bilan bog'liqligi asoslantirilgan. Ushbu

uslubiy yondashuvlarga tayangan holda, bizning tadqiqotimizda hududlarni rivojlantirishda xizmatlar sohasining roli va bu jarayonlarda davlat xususiy sherikchiligining ahamiyati o‘rganildi.

Hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishini baholash, o‘z tarkibiga ko‘ra savdo, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, axborot va aloqa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi faoliyat turlarini qamrab oladi. Xizmatlar sohasi faoliyatining yakuniy natijasi ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi. Shu bois, xizmatlar sohasining iqtisodiyotda xususan, hududlar rivojlanishidagi rolini aniqlashda aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi indikatoridan foydalaniladi. Shunga asoslanib, ushbu soha rivojlanishida tadbirkorlikning hissasini baholash mumkin. Bunda hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi tahlil qilindi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini baholash bu boradagi muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini hududlar kesimida baholash asosiy maqsad etib belgilandi. Bunda hududlarning o‘rni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi bo‘yicha aniqlandi va quyidagi ko‘rsatkichlar orqali hisoblandi:

hisobot davrida doimiy aholi o‘rtacha yillik soni (ming kishi); hisobot davrida ko‘rsatilgan xizmatlari hajmi (mlrd. so‘m).

Hududlarning xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini tavsiflovchi xususiy ko‘rsatkichlari rasmiy statisika ma’lumotlari asosida shakllantirildi. Bunda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi quyidagi formula orqali hisoblandi.

Hududlarni rivojlantirish va bu jarayonlarda xizmatlar sohasining rolini oshirishga oid tadqiqotimiz natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqildi: **birinchidan**, hududlarni rivojlantirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi qo‘srimcha rivojlantiruvchi omillar

ta'sirini hisobga olib yondashish zaruratini ko'rsatmoqda; **ikkinchidan**, tadqiqot natijalariga asoslanib shunday xulosaga kelindiki, hududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlashda hamon qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Chunki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli xil metodologik yondoshuvlarida turlicha ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib, hududlar iqtisodiyotining u yoki bu sohasi baholangan. Shuning uchun tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish imkonи bo'lindi; **uchinchidan**, o'rganilgan tadqiqotlarda hududlar rivojlanishida davlat xususiy sherikchiligining o'rni va ahamiyati hisobga olinmagan. Shu bois hududlarning rivojlanishiga oid tadqiqot natijalarini sinergetika tamoyillari asosida birlashtirish yoki umumlashtirishda qiyinchiliklar uchradi; **to'rtinchidan**, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mazmunidan kelib chiqqan holda, xizmat ko'rsatish sohasida DXShni rolini oshirish orqali hududlarning rivojlanishini baholash ham muhim vazifa lardan hisoblanadi. Bu borada tadqiqot uchun to'plangan ma'lumotlar DXSh faoliyatining ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarining rivojlanishidagi rolini baholash uchun yetarli bo'lindi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlarda ushbu sohalarda ham DXShni o'rni va rolini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borish vazifasi belgilandi. Bunda xizmat ko'rsatish sohasining barcha faoliyat turlari bo'yicha DXSh asosidagi loyihalarni baholash, hududlarning "xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida DXShning roli" indeksi bo'yicha hududlarni toifalash mezonlarini ishlab chiqish keyingi tadqiqotlarning vazifalari sifatida belgilandi. Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sohasi yuksalishi uchun iqtisodiy, infratuzilma, moliyaviy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash talab etiladi. Qashqadaryo viloyati misolida bu jarayonni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

## **1. Xizmatlar sohasining hozirgi holati**

- **Turizm:** Qashqadaryo viloyati tarixiy va tabiiy boyliklari bilan mashhur. Shahrisabz va Qarshi shaharlari kabi diqqatga sazovor joylar mavjud.
- **Transport va logistika:** Viloyatda ichki va tashqi transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali xizmatlar sohasini kengaytirish imkoniyatlari bor.
- **Savdo va maishiy xizmatlar:** Hududda yangi savdo markazlari va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil etish talabi yuqori.

## **2. Xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari**

- **Turizmni rivojlantirish:**
  - Mahalliy va xalqaro turistlarni jalb qilish uchun infratuzilma (mehmonxonalar, transport tizimi, yo‘l ko‘rsatkichlari)ni yaxshilash.
  - Hududning tarixiy va madaniy boyliklarini targ‘ib qilish.
  - Ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish.
- **Raqamli xizmatlar:**
  - Internet xizmatlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish.
  - Onlayn savdo platformalari va elektron xizmatlarni yo‘lga qo‘yish.
- **Kichik biznes va tadbirdorlikni qo‘llab-quvvatlash:**
  - Xizmat ko‘rsatish sohasida startaplar va tadbirdorlarni moliyalashtirish.
  - Yangi ish o‘rinlari yaratish uchun soliq imtiyozlari va kredit dasturlarini taklif etish.

## **3. Infratuzilmani rivojlantirish**

- Zamonaviy bozorlar, savdo markazlari va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil etish.
- Qishloq joylarda transport va aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish.

## **4. Ta’lim va kadrlar tayyorlash**

- Hududda xizmat ko‘rsatish sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish.
- Turizm, mehmonxona biznesi, IT va boshqa xizmat sohalarida o‘quv markazlari tashkil etish.

## **5. Investitsiyalarni jalg qilish**

- Xizmatlar sohasiga mahalliy va xorijiy investorlarni jalg qilish uchun qulay biznes muhitini yaratish.
- Turizm va savdo sohasida investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

## **6. Marketing va targ'ibot ishlari**

- Viloyatning xizmatlar sohasidagi imkoniyatlarini targ'ib qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish.
- Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy media vositalari orqali hududning imkoniyatlarini yoritish.

Qashqadaryo viloyati xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Yuqoridagi yo'naliishlarni amalga oshirish orqali viloyat iqtisodiyoti diversifikatsiya qilinib, aholi turmush darajasini oshirishga erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702son qarori.
3. Jiyanova N.E, Umarova A.I. O'zbekiston respublikasi hududlarining innovatsion rivojlanishini takomillashtirish yo'llari // 2022 yil. Toshkent.
4. zx SHODMONOVNA F. S. Impact of affordable housing construction and housing and communal services on the welfare of the population by typical projects //The journal of contemporary issues in business and government. – 2021. – T. 27. – №. 2. – C. 4069-4073.
5. Юлдошева Ш. А. ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В СИСТЕМЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 794-800.

6. Юлдошева Ш. А. САНОАТ КОРХОНАЛАРИ САМАРАЛИЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 1168-1172.
7. Rustamovna K. N. ISSUES OF FURTHER DEVELOPMENT OF CULTIVATION AND PROCESSING OF MEDICINAL PLANTS.
8. Khojakulova N. R. Prospects For Further Development Of Medicinal Plants //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – №. 1. – С. 1-8.
9. Khujakulova N. R. WAYS TO IMPROVE THE CURRENT STATE OF CULTIVATION AND PROCESSING OF MEDICINAL PLANTS AND ITS IMPORTANCE //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – Т. 25. – С. 15.
10. Fayziyeva S. S., Yakhshiyeva N. A. Q. THE ROLE OF INNOVATION IN GLOBALIZATION AND THE DIGITAL ECONOMY //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 51-55.
11. Fayziyeva S. Tadbirkorlikni rag ‘batlantirishning mintaqaviy xususiyatlari //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – Т. 2. – №. 02.
12. Shodmonovna S. F., Khaitovna M. S. Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasi //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – Т. 2. – №. 1.
13. Samiyeva G. Ijtimoiy sohada maqsadli jamg ‘armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – Т. 2. – №. 02.
14. Самиева Г. АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ //Nashrlar. – 2023. – С. 509-511.
15. Самиева Г. Т. ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ

НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 1341-1345.